



TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

1991-yildan
chiqa boshlagan

2019-yil. 9-son.

ISSN 2010-5584

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@mail.ru www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.ru www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.ru www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.ru www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.ru www.tilvaadabiyot.uz

JONAJON O'ZBEKISTONIM, MANGU BO'L OMON!



Ushbu sonda



Beshta muhim
tashabbus

Badily adabiyotda tibbiyot
mavzusi

3
bet



Eng faol filolog-
muallim

"Butun dunyo bolalari,
tinchlik uchun
birlashaylik!"

7
bet



Tadqiqotlar

"Boburnoma" da portret
san'ati

28
bet



Мастерство
перевода

Анализ русского
перевода повести
Улугбека Хамдама
«Одиночество»

71
bet



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2019-yil. 9-son.

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Maqsudxon YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONGULOVA
Sirojiddin SAYYID
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV

Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)
Nilufar Namozova

Jamoatchilik kengashi:

Muhammadjon ALIYEV
Ergesh ABDOVALITOV
Manzura DADAXO'JAYEVA
Ehson TURDIQULOV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ul:

Nigora O'ROLOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.

Telefon: (98) 121-74-16,

(71) 233-03-10,

(71) 233-03-45,

(71) 233-03-67.

e-mail: til_adabiyot@mail.uz

web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar «Til va adabiyot ta'limi»dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnaldan nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 22.10.2019-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84¹/₄. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garnituras. 10, 11 kegl. «EKO TEXTILE PRODUKT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi 3830 nusxa, Bahosi kelishilgan narxda.

1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

BESHTA MUHIM TASHABBUS	
Kavsar Turdiyeva. Badiiy adabiyotda tibbiyot mavzusi	3
DOLZARB MAVZU	
Durdona Lutfullayeva, Muyassar Saparniyazova. O'zbek tilida nom yaratish muammolari	5
DARS – MUQADDAS	
Shahlo Oshiqova. Butun dunyo bolalari, tinchlik uchun birlashaylik!	7
Nazokat Abduraxmanova. O'zlik nisbati	9
Munira Husanova. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari yuzasidan takrorlash	10
METODIK TAVSIYA	
Fituz Safarov. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida yangi so'zlarni faollashtirish usullari	14
Turg'unoy Kaziyeva. Bo'g'inning til va nutqdagi o'rni o'rgatishda o'quvchining kreativ tafakkurini rivojlantirish	16
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
Muqaddamxon Ehsanova. Nutqning kommunikativ sifatlarini o'stirishda qo'llanadigan pedagogik texnologiyalar	19
TAHLIL	
Vazira Nuriddinova. "Saddi Iskandariy" dostonidagi omonimlar	21
Eshnazar Jabborov. Jahon ma'rifatchiligining sharqona tamoyillari	22
Naima Keldiyorova. Azim Suyun she'riyatida inson va tabiat uyg'unligi	24
Shahnoza Rahmonova. Maktab darsligida keltirilgan aruz vaznlari tahlili	25
TADQIQOTLAR	
Elmira Hazratqulova. "Boburnoma"da portret san'ati	28
Olima Xolmurodova. Ingliz kumulyativ e'taklarida Jek obrazi	30
Gulhayo Amrulloeva. O'qish darslarining pedagogik imkoniyatlari	32
KICHIK TADQIQOT	
Lolo Shasaidova. Xitoy tilini o'rganishda fonetik qiyinchiliklar	34
Sayfulla Nurtayev. Ingliz neologizmlari va ularning qo'llanilishi	36
Mehroj Kuldashv. Xitoy va o'zbek tili frazeologizmlarining stilistik funksiyalari	37
Zavqiddin Suvanov. Adabiyot ta'limida muallif obrazi va bayonchi munosabati	39
Dilafroz Muhammadiyeva. Tarjimada somatik frazemalarning ifodalanishi	40
Guli Shukurova. Esse-qissada jangchi xotirlarining badiiy taqini	42
Obodon Adizova. Aziz Gayumovning tarixiy-biografi asarlari mazmuni va til xususiyatlari	43
Elmurod Nasrullayev. Navoiyning falsafiy aqidalari xususidagi tadqiqot tahlili	44
Adiba Davlatova. Zamonaviy o'zbek she'riyatida O'zbekiston timsolining badiiy tasviri	46
Fotima Safarova. Xorijiy tilni o'rgatishda qiziqishni shakllantirish usullari	47
Otabek Yuldashev. Ayrim tarixiy gemeronimlarning leksik-semantik xususiyatlari	48
«ЛУЧШИЙ УЧИТЕЛЬ-ФИЛОЛОГ»	
Марвар Шарифутдинова. Мнемотехника – технология развития памяти	49
Зулхумор Исаханова. В магазине	52
Татьяна Степанкова. «Маленький принц» Антуана де Сент-Экзюпери	54
ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ	
Феруза Саидова. Факторы формирования мониторинга качества образования	56
Маъсуда Тахирова. Словарная работа как один из способов повышения языковой культуры студентов	57
Любовь Раджабова. Коммуникативная направленность в обучении русскому языку	59
ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ	
Малохат Узакова. Текстцентрический подход как один из эффективных приемов при изучении русского языка как неродного	62
Нилуфар Ахмедова. Обучение профессионально-ориентированной лексики курсантов Таможенного института	64
Муборак Махмудова. Развитие письменной речи учащихся узбекской школы	66
ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ	
Беккенбауэр Реймов, Айшолпан Ниязова. Нам сказка изучать и усваивать английские фразеологизмы помогает	68
МАСТЕРСТВО ПЕРЕВОДА	
Феруза Мусаева. Анализ русского перевода повести Улугбека Хамдама «Одиночество»	71
ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ	
Юлия Матенова. Диалог современного французского писателя Кристиана Бобена с литературной классикой	74
Агата Осипова. Особенности художественного осмысления действительности современными постмодернистами	76
Замира Нуржанова. Особенности графики древнерусской рукописной книги	77
ОБСУЖДАЕМ, СПОРИМ	
Маргарита Батырова. Гуманизация – ключевая категория вузовского образования	79



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI NUTQIDA YANGI SO'ZLARNI FAOLLASHTIRISH USULLARI

O'quvchilar lug'atini faollashtirish – ona tili va o'qish darslarida bajariladigan lug'at ishining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, bunda o'qituvchining vazifasi o'quvchi lug'atidagi nafaol so'zlarni faol lug'at zaxirasiga o'tkazish, ularga nafaol so'zlarning birikuvchanligi va qo'llanish sohasini o'zlashtirishga yordam berishdan iborat. O'quvchi biror so'zni o'z hikoyasi, suhbat, xati, bayoni, inshosida atigi bir marta qo'llasa ham, bu so'z faollashgan hisoblanadi. O'quvchiga yangi so'z ma'nosini tushuntirish, uning so'zni to'g'ri tushunishiga erishishda, M.R.Lvov fikricha, quyidagi usullar farqlanadi: *ko'rgazmali, kontekstual, sinonim keltirish, mantiqiy ta'rif berish, batafsil tavsiflash, antonim keltirish, so'zning yasash tarkibini tahlil qilish* [7: 17–24].

O'quvchilar lug'atini faollashtirish quyidagi bosqichlardan iborat:

1. So'z ma'nosini bir yoki bir necha usul yordamida tushuntirish:

- a) kontekst;
- b) shu so'zning ma'nodoshi;
- d) shu so'zning antonimi yordamida;
- e) tavsifiy yo'l bilan (lug'atdan foydalanib yoki o'qituvchining o'zi mustaqil ravishda).

2. So'zni o'qish va yozish (so'zning to'g'ri talaffuzi va imlosi ustida ishlash).

3. So'zning qo'llanish namunalari ustida ishlash (tayyor so'z birikmasi va gaplar ustida ishlash).

O'qituvchi o'quvchilarni o'rganilayotgan so'zlar qo'llangan tayyor so'z birikmalari va gaplar bilan tanishtiradi. So'ng ularning ayrimlarini aytib turib yozdiradi.

4. So'zning semantik aloqalari ustida ishlash.

O'quvchilarni so'zlarning paradigmatic aloqalarini ajratish va o'zlashtirishga o'rgatuvchi mashqlar ular lug'atining boyishiga yordam beradi. Bunday mashqlar kerakli so'zni tanlash, jumla mazmunini aniq yetkazish, so'zning ma'no qirralarini tushunish qobiliyatini shakllantiradi.

5. O'rganilayotgan so'zlar ishtirokida mustaqil ravishda so'z birikmasi va gap tuzdirish.

Boshlang'ich sinf "Ona tili" va "O'qish kitobi" darsliklarida ma'nosi o'quvchilarga tushunarsiz bo'lgan ko'pgina so'zlar uchraydi. Bunday so'zlarning ma'nosini bir qancha usullar yordamida tushuntirish mumkin:

1. Darsliklarda uchraydigan quyidagi kabi so'zlarning ma'nosini ularning rasmini ko'rsatish yo'li bilan tushuntirish mumkin: *yalpiz, isiriq, kiyiko'ti, ermon* (1: 6), *kashta* (1: 7), *garmdori, qal'a, fabrika, raketa* (1: 17),

tuma, sholi (1: 21), *shabnam* (1: 22), *gumbaz* (1: 22), *marvaridgul* (1: 77), *sa'va* (1: 29), *olxo'ri* (1: 31), *husayni* (1: 38), *chang'i* (1: 41), *qayin* (1: 43), *zarg'aldoq* (1: 46), *do'lana* (1: 51), *parovoz, teplovoz, elektrovoz, vagon* (1: 71), *metro* (1: 78), *binafsha* (1: 80), *chuchmoma* (1: 80), *gulsapsar* (1: 80), *na'matak* (1: 177), *qirg'iy* (1: 178), *olcha* (1: 137), *saroy* (6: 7), *piyma* (6: 11), *tunuka* (6: 12), *po'stin* (6: 14), *soy* (6: 16), *chuchmoma, yalpiz, jag'jag', ismaloq* (6: 43), *tuma* (6: 44), *ko'za* (6: 54), *pona* (6: 60), *minora* (3: 13), *chayla* (3: 22), *taqa* (3: 75), *tivit, tovus, beqasam* (3: 90)...

Ko'rinib turibdiki, bu so'zlar aniq, ya'ni ko'z bilan ko'riladigan narsalarning nomini bildiradi. Ot va sifat turkumiga mansub so'zlarning ma'nosini tushuntirganda – narsa tasvirlangan suratni, fe'l turkumiga oid so'zlarni tushuntirganda esa sujetli suratni ko'rsatish lozim.

2. Quyidagi so'zlarning ma'nosini ularga sinonim keltirish orqali tushuntirish mumkin. Bunda foydalaniladigan har bir sinonim so'z faqatgina bolalar yaxshi tushunadigan umumiste'mol so'zlardan tanlanilishi kerak: *istiqlol – mustaqillik; nurafshon – yorug'; muborakbod etmoq – tabriklamoq; samo – osmon; ko'k; gulshan – gulzor; sabo – shabada; yaproq – barg; ahil – inoq; dastyor – yordamchi; shu'la – nur; ehtirom – hurmat; chashma – buloq; choq – payt; darz – yoriq; ranj – qiyinchilik; ganj – boylik; xazina; ohista – sekin; et – go'sht; xontaxta – stol; xazonrezgilik – barglamang to'kilishi; sarvqomat – tik; mug'ambir – ayyor; chaqa – tanga; parranda – qush; istirohat – dam olish; nishon – mo'ljal; husn – chiroy; sohil – qirg'oq; mador – quvvat; g'ubor – chang; dog; jussa – gavda; o'git – nasihat; yumush – ish; beg'ubor – toza; sof; ko'lanka – soya; maysa – o't...*

3. Darsliklardagi o'ta umumiy, keng tushunchani bildiruvchi so'zlarning ma'nosini ular nomlaydigan narsalarni sanab keltirish orqali tushuntirish mumkin:

hasharot – qurt, chumoli, ari, qo'ng'iz, o'rgimchak; meva – olma, nok, anjir, o'rik, shaftoli; matn – hikoya, she'r, ertak; poliz – qovun, tarvuz, handalak; ajdod – ota, bobo, buvi, bobokalon; avlod – farzand, nevara, evara, chevara; texnika – traktor, mashina, kombayn, televizor, dazmol...

4. Darslikdagi ko'pgina so'zlarning ma'nosini ularning tarkibiy qismlari – morfemalar orqali aniqlash mumkin. Ma'lumki, kattalar ham, o'quvchilar ham noma'lum

so'z ma'nosini bo'lish va uni ma'lum bo'lgan o'zakdosh so'z bilan mazmuniy aloqa o'rnatish asosida ochishga harakat qiladi. 3-sinf darsligidagi quyidagi so'zlarni so'z yasash tarkibi – o'zak va yasovchi qo'shimcha orqali tushuntirish mumkin:

oromgoh – orom – o'zak, -goh – so'z yasovchi qo'shimcha, joy degan ma'noni anglatadi. Demak, bu so'z orom, dam oladigan joy ma'nosini bildiradi;

xabardor – xabar – o'zak, -dor – so'z yasovchi qo'shimcha, egalik ma'nosini bildiradi. Demak, bu so'z xabari bor degan ma'noni bildiradi;

qalamkash – qalam – o'zak, -kash – so'z yasovchi qo'shimcha, tortmoq, chizmoq degan ma'noni bildiradi. Demak, bu so'z qalam bilan ishlovchi kishini, ya'ni shoir, yozuvchilarni bildiradi...

Shundan keyin o'quvchilar so'z yasovchi qo'shimcha qo'llangan boshqa so'zlarning ma'nosini o'zlari aniqlaydi:

serhikmat – hikmati ko'p, hikmatga boy;

sohibkor – sohib – o'zak, -kor – so'z yasovchi qo'shimcha, kasb egasi, mutaxassislik, mashg'ulot bilan bog'liq bo'lgan shaxs oti yasaydi. Bu so'z o'z kasbining ustasi degan ma'noni bildiradi;

badfe'l – fe'l – o'zak, bad- – so'z yasovchi qo'shimcha, yomon degan ma'noni bildiradi. Demak, bu so'z fe'li yomon degan ma'noni anglatadi...

5. Darsliklardagi sinonimi mavjud bo'lmagan quyidagi so'zlar ma'nosini o'quvchilarga tasviriyl yoki bilan tushuntirish mumkin:

anjuman – keng ko'lamli, katta yig'ilish;

fuqaro – biror mamlakatning doimiy aholisi;

ma'vo – turar joy;

ma'rifat – tabiat, jamiyat va inson haqidagi chuqur hamda ezgulikka yo'naltirilgan bilim;

qit'a – yerning dengiz va okeanlar bilan qurshalgan olta alohida qismidan har biri;

mo'jiza – odatdan tashqari kishini hayron qoldiruvchi hodisa yoki ish, narsa...

6. Mavhum tushunchani bildiruvchi quyidagi kabi so'zlar ma'nosini obrazlar yordamida tushuntirish mumkin:

adolat so'zi: "Adolat – odamlarga bir xilda munosabatda bo'lish demak. Adolat taroziga o'xshaydi. (O'qituvchi tarozining rasmini ko'rsatadi.) Tarozining ikkala pallasiga bir xil yuk qo'yilsa, uning ikki pallasiga teng bo'ladi. Bir pallasiga og'irroq yuk qo'yilsa, tarozining bir pallasiga baland, bir pallasiga past bo'ladi. Endi hayotdan misol keltiraman. Masalan, bir otaning 2 o'g'li bor. Ota bozordan 4 ta olma olib keldi. Ikkala o'g'liga 2 tadan olma bersa, bu adolatdan bo'ladi. Bir o'g'liga bitta, ikkinchi o'g'liga uchta olma bersa, bu adolatsizlik bo'ladi";

jur'at so'zi: "Jur'at – xavf-xatar, qiyinchiliklardan hayiqmay qilingan ish. Hayotda ko'p hollarda kishiga jur'at kerak bo'ladi. Masalan, tishingiz og'rib qolsa, tish shifokoriga borishingiz uchun jur'at kerak. Yoki matematikadan sizga qiyin misol berilgan bo'lsa, uni yechish

uchun ham jur'at kerak. Jur'at – misoli jarlik ustidan sakrab o'tayotgan ot. Chunki jarlik ustidan sakrab o'tish uchun katta jur'at, jasorat kerak. Agar hayotda qiyinchiliklardan qo'rqmay, jur'at bilan ish tutsangiz, ko'zlagan maqsadingizga erishasiz".

So'z ma'nosini tushuntirish – o'quvchilar lug'atini boyitishning birinchi bosqichi xolos. So'z o'quvchining "o'z mulki"ga aylanishi, ya'ni faol lug'atiga kirishi uchun katta ishni amalga oshirish talab qilinadi. Nutq o'stirish bo'yicha tajriba shuni ko'rsatadiki, bu borada shablon va rejasizlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Har bir dars uchun rejalashtiriladigan so'z ustida izchil, puxta, doimiy ish olib borilishi lozim.

O'quvchilar uchun tushunarsiz va nafaol so'zlarni faollashtirishning bir qancha yo'llari mavjud. Jumladan, ona tili va o'qish darslarida o'quvchilar lug'atini faollashtirish uchun o'qituvchining o'zi tomonidan tuziladigan quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Har bir qatordagi o'zakdosh so'zlarni toping.

– qadrl, aziz, qadrdon;

– vafodor, sadoqatli, bevafo;

– mehrl, xushfe'l, mehribon;

– qo'pol, qo'rs, qo'pollik.

O'zakdosh so'zlarni ajratib yozing. O'zagini belgilang. Shu so'zlardan istalgan birini qo'llab gap tuzing.

2. Sabr, hurmat, e'tibor so'zlariga o'zakdosh so'zlar toping. Izohli lug'atdan bu so'zlarning ma'nosini o'qing va eslab qoling:

a) Insonni nima uchun hurmat qilish mumkin?

b) Har qanday odam hurmatga loyiqmi?

3. Har bir so'zning qaysi so'z turkumiga kirishini aniqlang.

Ishonch, ishonmoq, e'tibor, ishonchli, mehmondo'st, mazax qilmoq, xafa qilmoq, xushfe'l, bag'ritosh, nafratlanmoq, yaxshi ko'rmoq, loqayd, hurmat, halol, rost, rostgo'y, shafqatsiz, insonparvar.

So'zlarni uch ustunchaga ajratib yozing: ot, sifat, fe'l. Insonning ijobiy xislatlarini ayting. Bag'ritosh va mehribon so'zlarining ma'nosini tushuntiring.

4. Berilgan so'zlarga qarama-qarshi ma'noli so'zlar topib yozing.

Dono odam – nodon odam; xushfe'l yigit –...; jasur askar –...; shirinso'z bola –...; bag'ritosh odam –...; qahrli nigoh –...

Foydalanish uchun so'zlar: *badfe'l, mehribon, qo'rqqoq, qo'pol, mehrl.*

5. Quyida berilgan sifatlarning umumiy jihati nima? Ularning ma'nosida qanday farq bor?

Xushmuomala, shirinso'z, xushfe'l, nazokatli, odobli, muloyim, kirishimli, dilkash.

6. Lug'at diktanti.

Birinchi ustunchaga odamlar qanday bo'lishi kerakligini bildiruvchi, ikkinchi ustunchaga qanday bo'lmasligi kerakligini bildiruvchi so'zlarni yozing.

Xushfe'l, qo'pol, yolg'onchi, halol, vijdonli, qasoskor, sabrl, shafqatli, to'g'riso'z, shafqatsiz.

Shu so'zlardan uchtasini tanlab gap tuzing:

7. Quyidagi gaplar yordamida *to'g'ri* so'zining ma'no-larini qiyoslang:

To'g'ri odam yolg'on gapirmaydi.

Nodirning javobi to'g'ri.

Qaysi so'zlar birinchi gapga, qaysi so'zlar ikkinchi gapga mos keladi: *halol, aniq, insofli, rost.*

8. *Yumshoq* va *muloyim* so'zlarini quyida berilgan qaysi otlar bilan bog'lash mumkin?

Divan, so'z, odam, mum, kulgi, yostiq, xamir, ko'rpa, muomala.

9. Qarama-qarshi ma'noli so'z yozib, ma'nosini izohlang:

shafqatsiz – ...

xushmuomala – ...

viydonli – ...

ishchan – ...

loqayd – ...

sabrlı – ...

andishali – ...

saxiy – ...

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.Fuzailov, M.Xudoyberganova, Sh.Yo'ldosheva. Ona tili. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2016. 144-bet.
2. R.Ikromova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, D.Shodmonqulova. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2015. 192-bet.
3. S.Matchonov, A.Shohjalilov, X.G'ulomova, Sh.Sariyev, Z.Dolimov. O'qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: Yangiyo'l poligraf servis, 2015. 240-bet.
4. K.Qosimova, S.Fuzailov, A.Ne'matova. Ona tili. 2-sinf uchun darslik. – Toshkent: Cho'lpon, 2014. 128-bet.
5. T.G'afforova, E.Shodmonov, X.G'ulomova. Ona tili. 1-sinf uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2015. 112-bet.
6. T.G'afforova, E.Shodmonov, X.G'ulomova. O'qish kitobi. 1-sinf uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2015. 112-bet.
7. F.Safarov. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mavhum tushunchalarni obraz vositasida tushuntirish. // "Pedagogik mahorat" jurnali. – Buxoro, 2013. 2-son, 50–53-betlar.

Turg'unoy KAZIYEVA,

Andijon davlat universiteti o'qituvchisi

BO'G'INNING TIL VA NUTQDAGI O'RNINI O'RGATISHDA O'QUVCHINING KREATIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Ma'lumki, akademik litseylarda hozirgi o'zbek adabiy tilini o'qitish jarayonida til sathlarining uslubiy tomonlariga e'tibor qaratish yetakchi o'rin tutadi. Shunday ekan, bo'g'in va u haqidagi ma'lumotlarni o'rgatishda uning uslubiy jihatiga, avvalo, ayrim tillarda uning so'zlarni farqlovchi xususiyatga ham egaligiga e'tibor qaratilib, nutqda qurilish material sifatida ishtirok etishini tushuntirish zarur. Ayni paytda bo'g'inning metodik jihatdan ham katta ahamiyati borligi: savod o'rgatishda uning orfografiya qoidalari bilan bevosita aloqadorligi, chunki to'g'ri yozish, to'g'ri talaffuz qoidalari – orfografiya va bo'g'inning bir-biri bilan bog'liqligini aytib o'tish joiz.

Umumta'lim maktablarining ona tili darsliklarida bo'g'in ko'chirish qoidalari ham berilganligi o'quvchilarning imlo savodxonligini rivojlantirishda uning o'ziga xos o'rni borligini bildiradi. Uning yana bir muhim jihatlaridan biri shuki, bo'g'in she'riyatda vazn o'lchovi sifatida ohangdorlik va musiqiylikni ta'minlaydi. O'quvchilarga bu haqda bilim berishda bo'g'in tuzilishining



ahamiyati, uning fonologik birlik ekanligi, nutqdagi o'rni tushuntirish, shuningdek, bo'g'in strukturalarini aniqlashga o'rgatish ahamiyatli hisoblanadi [1:34]. Chunki I.A.Zimnyaya kompetentlilik va uni o'quvchilarda namoyon qilish sifatlari haqida gapirar ekan, uni